

**SHUKUR XOLMIRZAYEVNING "TUPROQ KO'CHALAR" QISSASIDA
OBRAZLAR ARO KONFLIKTLAR.****Hafizova Feruza Odiljonovna***Ilmiy rahbar**Termiz davlat universiteti**O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o'qituvchisi***Abdurahmonova Gulorom Iskandar qizi***Muallif**Termiz davlat universiteti 2 - bosqich talabasi**+998912440253*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada men sevimli yozuvchimiz Shukur Xolmirzayevning "Tuproq ko'chalar" qissasida tasvirlangan turli obrazlarning ziddiyatlari, ruhiy va ijtimoiy realliklar, mavjud qarashlarni va qahramonlar xarakterini aks ettirishdagi mahorat, muhit va mohiyat ustuvorligi uyg'unlashtirilgan tarixiy haqiqatlar bilan inson psixologiyasi sintezlarini yoritib berishga harakat qildim.*

Kalit so'zlar: *ruhiy va ijtimoiy reallik, muhit va mohiyat ustuvorligi, obrazlar ziddiyati, mavjud qarashlar, qahramonlar xarakteri...*

Annotation. *In this article, I tried to explain the conflicts of different characters, spiritual and social realities, the skill of reflecting the existing views and the character of the heroes, the synthesis of human psychology with historical truths, where the primacy of environment and essence are combined in the story of our beloved writer Shukur Kholmirzayev "Tuproq Kholmirzayev".*

Keywords: *spiritual and social reality, priority of environment and essence, conflict of images, existing views, character of heroes...*

Nazar Eshonqul "Ham hayotda, ham adabiyotda shaxs edi" maqolasida Shukur Xolmirzayevga shunday ta'rif beradi.

Shukur Xolmirzayev o'ziga talabchan yozuvchi edi, yozganlaridan hech qachon birdan qoniqqan emas. Uning XX asr hikoyachiligining sara namunalari bo'lgan hikoyalardan ham o'zi qoniqmaganini sezilib turadi. Bir marta Shukur akaga: «Nega eng zo'r hikoyalaringizda birdan davriy chekinish qilib, publitsistik izohga berilasiz, bular menga ortiqcha tuyuladi, agar shularni olib tashlasangiz, juda zo'r hikoyalar», – dedim. Men «To'p o'yin», «Ozodlik» kabi bir qancha hikoyalardagi adibning voqeaga ataylab aralashgan va izoh bergan joylarini aytgan edim. «Aylanayin, shu hikoyalar o'sha gaplar bilan tug'ilganda ularni qanday olib tashlay, ularsiz hikoya to'kis bo'lmaydi», – dedi. Shukur aka mening fikrimdan ranjigani yoki o'ziga olgani yo'q. O'shanda ham men o'zi fikrimda qolganman. Shukur aka fikrimni o'zgartirishga urinmagandi.

Asar nomi "Tuproq ko'chalar" deb nomlangan. Shu birgina nom ostida ehtimol yozuvchi hayot olamining bor boyliklari yashiringandir. Yoshligi, o'smirlikka o'tish davri bilan birga zamon qiyinchiliklarini singdirgandir ushbu asarida. Ammo qahramonlarcha?

Qishloqning ba'zi bir odamlari ta'biri bilan aytganda "o'g'ri", "kisavur", yoki "boksga zo'r" obrazlar Rahimcha, Tarzan, Gung kabilar. Ularning asar qahramoni qilib olinishiga sabab nimada? Yoki bosh qahramonning otasi yo'qligi, shu sababdan o'zi doim takrorlaydigan onasi uning ko'ngliga qarashi masalasi. Odatda qiyinchilik ko'rmay, oilasida erka bo'lib o'sgan bolalar aytish mumkinki, hayotda turli to'siqlarga qoqiladi, qiynaladi. Shunga qaramay uni to'liq qoralab bo'lmaydi, zeroki, qahramonni bir tarafdin Rahimchalar yomonlikka yetaklasa, ikkinchi tomondan esa, Nagan, Farida kabi do'stlari uni yaxshilikka, kitob o'qishga undashadi. Hattoki, Nagan unga "O'qituvchi" nomli kitob ham sovg'a qiladi. Asarning mana shu joyi eng kulminatsion nuqta mening nazarimda. Kinoteatrda ham do'stini tahqirlashgani uchun Naganning jahli chiqadi.

Shukur Xolmirzayevning bir qator asarlari doimo yaxshilik bilan tugashi kuzatiladi. Misol uchun: "Omon ovchining o'limi", "Yur tog'larga ketamiz" yoki "Tuproq ko'chalar" asari ham shular jumlasidandir. Ularda har doim yovuzlar o'zlariga tegishli jazolarini oladilar. "Tuproq ko'chalar" qissasida Rahimcha qamaladi. Umuman olganda bu to'g'ri va haq qaror. Negaki, Rahimcha to'dasi qishloq bolalariga hech ro'shnolik berishmasdi. Bolalar o'z mehnatlari bilan qurgan ko'llariga ham to'da a'zolari egalik qilib olishgan, kamiga endi bechora bolalar o'zlariga tegishli bo'lgan joyga kelish uchun ham Rahimchalarni xursand qiladigan narsalar olib kelishi, ularga yaltoqlanishi kerak edi. Biroq afsuski, bu razolatga qarshi hech bir mard topilmaydi. Lekin boshqa tarafdin qaraydigan bo'lsak, bu zo'ravonlar haqida asarda to'liq yoritilmagan. Ularning ota-onasi haqida, nimaga aynan bu bolalar shunday yomonlikdan tap tortmaydigan, o'zlari ozor yetkazayotganlarga rahm qilmaydigan darajaga kelib qolishgan. Bu ochiq savol bo'lib qolmoqda?. Bu yerda yana bir masala, ya'ni qahramon bolaning ular bilan oshna bo'lish orzusi. Yozuvchi bosh qahramoniga ism bermagan, bunga sabab balki uni shu yomon bolalar bilan do'st tutinmoqchiligidan ranjiganidir. Bolaning yangi velosipedini Rahimchalarga berishi, ularni oldida yurishi, ko'lga cho'milish uchun kelgan bolalar unga ham xushomad qilishlari nafaqat yozuvchi shaxsning, balki o'quvchining ham ko'nglini xira qilishi tabiiy hol nazarimda. Negaki, bizga ma'lum bolaning otasi yo'q, ayol boshi bilan onasi uni katta qilyapti. Shu holida bolasini yomonlikdan qaytarishga urinardi. Yuqorida sanab o'tilgan do'stlari ham bolaning yaxshi bo'lishini xohlashadi. Mana shularni ko'zda tutib qahramon bola nafaqat yaxshilikka intilishi, balki o'zi ham ilmi va aqlli bo'lishi lozim edi.

Men bu asarni o'qiganimda hayolimga birinchi kelgan narsa sovet davri bo'ldi. Men asar voqealarini, undagi qahramonlar hayotini, taqdirini shunga qiyosladim. Nega aynan sovet davri degan savol tug'ilishi mumkin. Bunga yagona sabab

o'sha davr zulmidir. Shu qora davrda nafaqat boshqa bir qator yo'nalishlar, balki adabiyot ham yetarlicha to'siqlarga uchraydi. Cheklovlar, adolatsizliklar kuchaydi. Asar voqealari shunday qahramonni yovuzlik qariga tortadigan tuban sovetlar va uni yuksakka yetishiga, gullab yashnashiga urinayotgan jadidlar timsolida ko'rdim. Bunga undan birinchi narsa "O'qituvchi" kitobi bo'ldi. Buyuk yozuvchi shu birgina jumla bilan butun bir haqiqatni, adolatni ochib bergan. Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy va boshqa shu kabi jadidlarning mehnatlari shunday farovon kunlarga yetishimizga sababchilardir. Uning gullab yashnashini nafaqat jadidlar, balki butun millat orzu qiladi. Yozuvchining ham asl maqsadi, niyati ham shunday, o'z orzularini qissasi yakunida buni yorqin ifoda etadi ham. Yaxshilar yaxshilikka, o'z murodlariga yetadilar, yomonlar ham o'zlariga tegishli narsadan bebahra qolmaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shukur Xolmirzayev. Saylanma. Qissalar. T. 2019.
2. D. Qur'onov. Adabiyot nazariyasi asoslari. T.: Navoiy universiteti, 2018, 475b.
3. Nazar Eshonqul "Ham hayotda, ham adabiyotda shaxs edi" maqolasi.
4. ziyo.uz.